



# CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*2022- yil yanvar-fevral holatiga ko‘ra  
dastlabki ma’lumot*






Sirdaryo viloyati bo'yicha 2022- yilning yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **615,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilga nisbatan **8,9 %** ga ko'paydi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **43,2** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **163,9 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **572,3** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **106,2 %**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **58,2** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **105,6 %**) tashkil etdi.


#### Chakana savdo aylanmasi tarkibi, foizda



#### O'sish sur'atlari, foizda



#### Uyushmagan savdo, mln. so'm





## HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

### ENG YUQORI ULUSH

Guliston sh.

249,3

Sirdaryo viloyati chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Guliston shahri **40,5 %** ulush bilan **249,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Sirdaryo

105,0

Mirzaobod

46,0

Yangiyer sh.

57,4

Oqoltin

30,0

Sayxunobod

24,8

Sardoba

20,6

Guliston

26,0

Boyovut

30,8

Xovos

17,7

Shirin sh.

7,7

### UMUMIY MA'LUMOT

2022- yilning yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi

**615,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilga nisbatan **108,9 %** ni tashkil etdi.

### ENG QUYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Shirin shahri **1,3 %** ulush bilan, **7,7** mlrd. so'mni tashkil etdi.




## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

	Jami, mlrd. so'm	2021-yilga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021-yilga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2021-yilga nisbatan, foizda
Sirdaryo viloyati	<b>615,4</b>	<b>108,9</b>	<b>43,2</b>	<b>163,9</b>	<b>572,3</b>	<b>106,2</b>
Guliston sh.	249,3	111,2	19,9	161,8	229,4	108,2
Shirin sh.	7,7	104,3	0,0	110,1	7,6	104,2
Yangiyer sh.	57,4	107,6	3,4	88,1	54,0	109,1
tumanlar:						
Boyovut	30,8	159,9	11,7	11,9 m.	19,1	104,4
Guliston	26,0	104,6	1,3	2,6 m.	24,7	101,4
Mirzaobod	46,0	112,3	1,1	108,7	44,9	112,4
Oqoltin	30,0	105,1	0,4	116,5	29,6	105,0
Sardoba	20,6	78,2	0,3	98,3	20,3	77,9
Sayxunobod	24,8	92,3	0,8	96,7	24,0	92,2
Sirdaryo	105,0	106,3	3,9	65,8	101,1	108,9
Xovos	17,7	122,4	0,2	126,7	17,5	122,4

2021-yilga nisbatan ayrim hududlarda chakana savdo aylanmasi o'sishi kuzatildi. Yuqori ko'rsatkichlar Guliston sh (111,2 %), Mirzaobod (112,3 %), Xovos (122,4 %) va Boyovut (159,9 %) tumanlarida qayd etildi.

## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI



Chakana savdo tovar yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2021- yilga nisbatan **163,9 %** ga o'sdi va **43,2** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **7,0 %** ulushiga to'g'ri keladi.

**Yirik korxonalar , foizda**



**Eng yuqori ulushga ega hududlar, foizda**


**Boyovut** 11,7  
Tovar aylanmasi hajmi, mlrd.so'm



**Guliston sh.** 19,9  
Tovar aylanmasi hajmi, mlrd.so'm




**Yangiyer sh.** 3,4  
Tovar aylanmasi hajmi, mlrd.so'm





## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI



**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari, foizda**

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **572,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning tegishli davriga nisbatan **6,2 %** ga ko'paydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **93,0 %** ni tashkil etdi.



**Shirin sh. 7,6**

Tovar aylanmasi hajmi, mlrd.so'm

**Xovos 17,5**

Tovar aylanmasi hajmi, mlrd.so'm

**Sardoba 20,3**


Tovar aylanmasi hajmi, mlrd.so'm

99,4

98,8


98,4


**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi yuqori ulushga ega hududlar, foizda**



## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, foizda

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Shirin sh. (99,4 %), Sardoba (98,4 %), Oqoltin (98,6 %), Xovos (98,8 %), Sayxunobod (96,9 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 7,0 % ni tashkil etib, eng katta ulush Guliston (8,0 %), Yangiyer (5,9 %) shaharlarida, Guliston (5,0 %), Sirdaryo (3,7 %) va Boyovut (38,0 %) tumanlarida kuzatildi.





## AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2022- yilning yanvar-fevral oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **707,6** ming so'mni (2021- yilning mos davriga nisbatan **6,9 %** ga ko'paydi) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Guliston shahri (**2 698,4** ming so'm), Yangiyer shahri (**1 283,4** ming so'm) va Sirdaryo (**800,6** ming so'm) tuman hissasiga to'g'ri keldi.

	Hajm, ming so'm	2021- yilga nisbatan, foizda
Sirdaryo viloyati	<b>707,6</b>	<b>106,9</b>
Guliston sh.	2 698,4	109,4
Shirin sh.	405,0	103,2
Yangiyer sh.	1 283,4	105,4
tumanlar:		
Boyovut	231,8	157,2
Guliston	346,4	102,1
Mirzaobod	604,7	109,5
Oqoltin	562,3	103,2
Sardoba	304,9	76,8
Sayxunobod	312,3	90,5
Sirdaryo	800,6	104,6
Xovos	180,9	120,2




Eng  
yuqori  
hajm,  
ming so'm



Eng  
quyi  
hajm,  
ming so'm






## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Viloyat bo'yicha 2022- yilning yanvar-fevral oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **58 168,2** mln. so'mni tashkil etib, 2021- yilga nisbatan **5,6 %** ga ko'paydi. Shu jumladan, 1-bozor va 1-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **23 829,7** mln. so'mni (o'zgarish sur'ati **148,2 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **34 338,5** mln. so'mni (o'zgarish sur'ati **87,9 %**) tashkil etdi.

### Uyushmagan savdo tovar aylanmasi, foizda




Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari

### Tovar aylanmasi ulushi va hajmi

### Uyushmagan savdo tovar aylanmasida ulushi katta hududlar, foizda



Uyushmagan savdo

**58 168,2 mln. so'm, 100 %**

Dehqon bozorlari

**23 829,7 mln. so'm, 41,0 %**

Chorva bozorlari

**34 338,5 mln. so'm, 59,0%**

## UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2022 - yilning yanvar-fevral oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **23 829,7 mln. so'mni**, chorva (parranda) bozorlarida **34 338,5 mln. so'mni** tashkil etdi.

\* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagani holatda

\* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mln. so'm	2021-yilga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mln. so'm	2021-yilga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mln. so'm	2021-yilga nisbatan, foizda
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>58 168,2</b>	<b>105,6</b>	<b>23 829,7</b>	<b>148,2</b>	<b>34 338,5</b>	<b>87,9</b>
Guliston sh.	9 589,4	112,8	9 589,4	113,0	0,0	0,0
Shirin sh.	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Yangiyer sh.	1 870,1	176,7	1 870,1	176,7	0,0	0,0
tumanlar:						
Boyovut	2 518,6	208,4	2 518,6	2,0 m.	0,0	0,0
Guliston	7 776,3	95,2	708,4	3,1 m.	7 067,9	89,0
Mirzaobod	5 324,8	343,4	0,0	0,0	5 324,8	3,4 m.
Oqoltin	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Sardoba	9 082,2	59,2	2 090,5	9,3 m.	6 991,6	46,2
Sayxunobod	10 242,3	76,3	1 041,3	75,0	9 201,1	76,4
Sirdaryo	6 011,3	189,0	6 011,3	190,0	0,0	0,0
Xovos	5 753,1	220,2	0,0	0,0	5 753,1	2,4 m.

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI

2022- yilning yanvar-fevral oylarida viloyatimizning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **23 829,7 mln. so'mni** tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm don mahsulotlari (Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari) mahsulotlari savdosiga (**9 354,9 mln. so'm**) to'g'ri keldi.



## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mln. so'm

2022-yilning yanvar-fevral oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **34 338,5** mln. so'mni tashkil etdi. Bunda har hil yoshdagi qora mollar savdosini **29 456,2** mln. so'mni, qo'y va echkilar **4 072,6** mln. so'mni, otlar **789,3** mln. so'mni, parrandalar **20,4** mln. so'mni tashkil etdi.





## UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2022-yilning yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **2,7 %** ni tashkil etib, **16 712,4 mln. so'mga** yetdi va 2021- yilga nisbatan **6,4 %** ga ko'paydi.


	Jami, mln. so'm	2021- yilga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so'm	2021- yilga nisbatan, foizda	Yakka tartibdagи tadbirkorlik mln. so'm	2021- yilga nisbatan, foizda
Sirdaryo viloyati	16 712,4	106,4	14 773,2	106,4	1 939,2	106,5
Guliston sh.	8 421,7	107,2	7 875,9	107,1	545,8	107,7
Shirin sh.	288,2	102,5	254,5	102,3	33,8	103,4
Yangiyer sh.	1 278,9	106,7	976,7	106,5	302,2	107,2
tumanlar:						
Boyovut	282,5	101,2	163,6	101,4	118,9	101,0
Guliston	595,0	104,6	472,9	104,2	122,1	106,3
Mirzaobod	1 996,2	105,4	1 934,1	105,3	62,1	106,9
Oqoltin	416,4	105,0	326,0	104,7	90,4	106,0
Sardoba	273,9	105,4	185,8	106,2	88,1	104,1
Sayxunobod	486,6	105,2	392,3	104,8	94,3	106,7
Sirdaryo	2 527,1	107,0	2 085,5	106,9	441,6	107,0
Xovos	145,8	103,6	105,9	102,9	40,0	105,4



## ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Viloyat bo'yicha 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **299 620,9 mln. so'mni** tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **2,6 %** ga ko'paydi. Shu jumladan, yirik korxonalarning savdo tovar aylanmasi **17 840,8 mln. so'mni (123,9 % ni)** tashkil etdi.

### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi





UZBEKISTAN

KHIVA

TASHKENT

## ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Boyovut (4,2 m.) Sayxunobod (135,2 %) va Guliston (148,7 %), tumanlarida kuzatildi.

	Jami, mln. so'm	2021- yilga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so'm	2021- yilga nisbatan, foizda	Kichik biznes subyektlari, mln. so'm	2021- yilga nisbatan, foizda
Sirdaryo viloyati	299 620,9	102,6	17 840,8	123,9	281 780,1	101,5
Guliston sh.	137 078,4	103,1	3 851,0	95,2	133 227,4	103,4
Shirin sh.	449,2	76,0	0,0	0,0	449,2	76,3
Yangiyer sh.	7 847,6	94,7	106,4	0,0	7 741,2	93,5
tumanlar:						
Boyovut	6 511,8	2,7 m.	4 434,2	4,2 m.	2 077,6	99,4
Guliston	4 721,0	101,8	1 391,8	148,7	3 329,2	89,9
Mirzaobod	21 427,5	101,5	1 322,5	120,1	20 105,0	100,4
Oqoltin	3 058,5	112,2	1 265,0	134,4	1 793,5	100,5
Sardoba	4 745,1	95,1	1 444,0	110,0	3 301,1	89,8
Sayxunobod	14 355,7	90,1	1 438,5	135,2	12 917,2	86,9
Sirdaryo	94 087,6	102,5	1 322,5	68,3	92 765,1	103,3
Xovos	5 337,7	90,7	1 265,0	63,2	4 073,7	104,8

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Тел.: 67-236-86-34